



RAQAMLI ITISODIYOT SHAROITIDA TOVAR MODDIY ZAXIRALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Alishева Nigora Ravshanbekovna

*Magistr, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi
Fiskal institut. Tel: +998934831113 E-mail: alishev0613@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy asarda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining tovar moddiy zaxiralarini hisobini takomillashtirish muammolari, ularning korxonaga hisob jarayoniga ta'siri, muammolarni bartaraf etish uchun tavsiya etilayotgan yechimlarni qo'llash natijasida hisob jarayonining takomillashishi borasidagi fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tovar moddiy zaxiralar, kamomad, tannarx, xarajatlar, hisob jarayonini avtomatlashtirish, moliyaviy hisobot ma'lumotlari shaffofligi.

Аннотация: В данной научной работе представлены проблемы совершенствования учета ТМЦ производственных предприятий в условиях цифровой экономики, их влияние на учетный процесс предприятия, а также использование рекомендуемых решений для устранения возникших проблем. .

Ключевые слова: товарно-материальные резервы, дефицит, себестоимость, расходы, автоматизация учетного процесса, прозрачность данных финансовой отчетности.

Abstract: This scientific work presents the problems of improving the accounting of inventory items of manufacturing enterprises in the digital economy, their impact on the accounting process of the enterprise, as well as the use of recommended solutions to eliminate problems that have arisen. .

Key words: inventory reserves, deficit, cost, expenses, automation of the accounting process, transparency of financial reporting data.

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bn qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashtirish jaravonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz



zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi"[1].

Raqamli iqtisodiyot - raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi [2].

Buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari talablari asosida tashkil etish sharoitida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad hisob jarayonining samaradorligi va aniqligini oshirish, tovar-moddiy zaxiralar nazoratini yaxshilash va ulardan foydalanishni optimallashtirishga erishishdan iborat. Bu o'z navbatida tashkilotlarga xarid va ta'minot jarayonlarini samarali rejalashtirish, moddiy qiymatliklarning ortiqchaligi yoki tanqisligi natijasida yuzaga keladigan qo'shimcha xarajatlardan qochish, tovar moddiy qiymatliklarning yo'qolishi yoki shikastlanishi kabi yo'qotishlar va xavflarni kamaytirish imkonini beradi.

Tovar moddiy qiymatliklarni hisobga olishni takomillashtirish ishlab chiqarishda moddiy resurslarning sarflanishini hisobga olish, xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya xarajatlarini tahlil qilish va nazorat qilish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda tovar moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish zaruratini yuzaga chiqaradigan bir qancha jiddiy muammolar ko'zga tashlanmoqda. Bu muammolar qatorida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- mavjud tovar moddiy qiymatliklar to'g'risidagi axborotlarning to'liq hamda ishonchli emasligi. Mazkur muammo tovar qoldiqlari hamda uning ishlatilishi to'g'risidagi ma'lumotlarning aniq shakllantirilmaganligi sababli yuzaga kelib, kelgusida tovar moddiy qiymatliklar ta'minoti bo'yicha xaridlarni rejalashtirishda noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin [3].

- moddiy qiymatliklar qoldiqlarini yetarli darajada nazorat qilinmasligi. Bu korxonada va tashkilotlarda mavjud tovar qiymatliklarning turlari, ularning ortiqcha yoki ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash maqsadidagi miqdorlardan kam ko'rsatkichlarni yuzaga keltirishi mumkin.

- maxsus kodlash va tasniflash tizimining mavjud emasligi. Bu hisob jarayonida chalkashliklarni yuzaga kelishiga, kerakli zaxiralarni joylashtirish, qidirish hamda foydalanish uchun berilishini murakkab jarayonga aylantirishi mumkin.



- maxsus o'qitilgan mutaxassislarning yetishmasligi. Tovar moddiy qiymatliklarning hisobini yuritishga maxsus o'qitilgan xodimlarning bo'lmasligi hisob jarayonida xatolarning yuzaga kelishi, TMZ ning saqlash sharoitlarini bilmasligi natijasida buzilishi va boshqa turli qo'shimcha xarajatlarini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi [4].

- korxonaning boshqa bo'limlari faoliyati bilan integratsiyalashgan tizimning yo'qligi. Korxonada ishlab chiqarish jarayonlari yoki boshqa bo'limlar faoliyati bilan tovar moddiy qiymatliklar hisobini yurituvchi bo'lim faoliyatining integratsiyalashmaganligi biznes faoliyatini barqaror tashkil etilishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Bu ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonada va tashkilotlarni aksariyatida mavjud bo'lgan kamchiliklardir. Bu kamchiliklarning mavjudligi esa korxonada ishlab chiqarilayotgan tovar (ish va xizmatlar)ning tannarxini shakllantirishda noaniqliklarning yuzaga chiqishiga hamda o'z navbatida noto'g'ri narx siyosatining yuritilishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda tovar moddiy qiymatliklar hisobida xalqaro miqyosda ham juda ko'p dolzarb muammolar yuzaga kelmoqda. Ularning quyidagi asosiy turlariga to'xtalib o'tishimiz mumkin:

- tovar moddiy zaxiralar hisobini avtomatlashtirishning yetishmasligi. Tashkilotlar hali ham inventar yozuvlarini qo'lda yoki eskirgan tizimlardan foydalangan holda olib boradilar. Bu xatolar, kechikishlar va resurslardan samarasiz foydalanishga olib kelishi mumkin. Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishni avtomatlashtirish ma'lumotlarning aniqligi, tezligi va mavjudligini oshirishga yordam beradi.

- kamomadlarni nazorat qilish va hisobga olish. kamomadlar o'g'irlik, shikastlanish, eskirish yoki noto'g'ri foydalanish natijasida yuzaga kelishi mumkin. Ushbu yo'qotishlarni kuzatish va hisobga olish muhim vazifa hisoblanadi. Bu katta hajmdagi tovar moddiy zaxiralarga ega kompaniyalar uchun qiyin vazifa hisoblanadi. Tovar-moddiy zaxiralar kamomadini yetarlicha nazorat qilmaslik moliyaviy yo'qotishlarga, tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligi va holati to'g'risidagi to'liq ma'lumotlarning shakllanmasligiga olib keladi.

- TMZga sarflangan xarajatlarni haqqoniy baholash. Tovar-moddiy zaxiralarning haqqoniy tannarxini aniqlash sotib olish bahosi, amortizatsiya, inflyatsiya va bozor konyunkturasining o'zgarishi kabi turli omillarni hisobga olish zaruriyatini inobatga olgan holda murakkab vazifa sanaladi. Tovar-moddiy zaxiralar



qiymatini noto'g'ri baholash esa moliyaviy hisobotlarning buzilishiga va noto'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga olib keladi.

- TMZ harakatini hisobga olish. Ko'pgina kompaniyalar tarqoq tizimlar, ko'plab omborlar yoki filiallarga ega. Tovar-moddiy boyliklarning tarmoqlar, omborlar hamda filiallar orasidagi harakatini hisobga olish murakkab jarayon bo'lishi mumkin biroq, TMZning barcha harakati va holatidagi o'zgarishlarni aniq va o'z vaqtida qayd etilishi buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

- hisob ishlarining qonun talablariga muvofiqligi. Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish soliq qonunchiligi, xalqaro hisobot standartlari va hukumat me'yoriy hujjatlarida ko'rsatilgan qonuniy talablarga javob berishi kerak. Qonunga rioya qilmaslik jarima va huquqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqorida xalqaro va mamlakat miqyosda tovar moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobini yutishda yuzaga kelayotgan bir qancha asosiy muammolarga to'xtalib o'tdik. Hisob jarayonida mazkur muammolarning mavjud bo'lishi buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining ishonchliligiga raxna solishi mumkin. Moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan ma'lumotlarning ishonchli emasligi esa korxonada obro'siga dog' tushirishi, menejerlar tomonidan boshqaruv qarorlarini noto'g'ri qabul qilinishi natijasida esa moliyaviy yo'qotishlarning yuzaga kelishiga sababchi bo'lishi mumkin [5].

Mazkur muammolarni o'rganish jarayonida ko'plab mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning bir qancha asarlari tadqiq etildi. Ularda keltirib o'tilgan fikrlar va mulohazalar, turli ilmiy ma'lumotlar, qarashlar chuqur o'rganildi hamda sanab o'tilgan muammolarni bartaraf etish uchun takliflarni ishlab chiqishda asos sifatida foydalanildi.

Masalan, xorijiy olimlardan tovar moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobini yuritish va ularning sarflanishini optimallashtirish bo'yicha mashhur iqtisodchi olimlar Anthony A. Atkinson, Robert S. Kaplan, Ella Mae Matsumura, S. Mark Younglarning asarlari o'rganib chiqildi. Mazkur olimlar korxonalarda tovar moddiy qiymatliklar tannarxini to'g'ri shakllantirish usullari, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'luvchi ma'lumotlarni shakllantirishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlar, shakllantirilishi zarur bo'lgan tovar moddiy qiymatliklar zaxiralarning optimal miqdorlarini hisoblash bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tganlar. Lekin tovar moddiy qiymatliklarning hisob jarayonini tashkil etish va hujjatlashtirish yoki hisob jarayonini avtomatlashtirish bo'yicha ularning asarlarida ma'lumotlar yetarlicha keltirilgan deb bo'lmaydi. Rus olimlaridan



Kondrakov N.P., [Pavlova I.V.](#), Medvedev M.Yu. o'z asarlarida tovar moddiy qiymatliklarning buxgalteriyada hisobga olinishi hamda hisobini tashkil etish tartiblari bo'yicha batafsil ma'lumotlar berib o'tganlar. Lekin ularda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma'lumotlarni saralash hamda tahlili borasida yetarlicha ma'lumotlar yo'q [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.A.Karimov, S.U.Mehmonov, I.N.Ismanov, Z.N.Kurbanov, K.B.Urazov, R.D.Do'smurovatovlarning asarlarida ham tovar moddiy zaxiralar hisobi va uni tashkil etish masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Mazkur olimlarning asarlarida keltirilgan ma'lumotlar umumiy holda buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi, biroq yuqorida sanab o'tilgan muammolarga to'liq yechimlarni bermaydi.

Tadqiqot natijalari va keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda mamlakatimizda tovar moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobini takomillashtirish hamda mavjud aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha quyidagicha takliflarni berish mumkin.

1. TMZni hisobga olish jarayonlarni avtomatlashtirish;
2. Kodlash tizimini tashkil etish;
3. Shtrix-kod tayinlash va skanerlash;
4. Tovar-moddiy zaxiralar qoldig'i nazorati kuchaytirish;
5. Xodimlarni o'qitish;
6. Boshqa tizimlar bilan integratsiya.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish korxonalarida TMZ buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish mahsulot tannarxini pastlatish, buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. Mulaydinov, Farkhod & Abdullaev, Akhrorjon. (2021). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi, afzalliklari va amaliy ahamiyati.
3. Акбаралиевич, Э.А., & Махамадзиковна, Г.М. (2022). Совершенствование Учета Собственного Капитала В Условиях Перехода На Мсфо. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 3(12), 8-16. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/H7UVE>



4. Anthony A. Atkinson, Robert S. Kaplan, Ella Mae Matsumura, S. Mark Young. Management Accounting: Information for Decision-Making and Strategy Execution 6th Edition. Pearson College Div. 2011. ISBN: 978-0132823272
5. Эрматов Акмалжон Акбаралиевич, & Муратов Азиз Акбарович. (2022). Вопросы Формирования Уставного Капитала Предприятия В Условиях Модернизации Экономики. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 11, 158–165. Retrieved from <https://periodica.org/index.php/journal/article/view/241>
6. Кондраков Н.П., Самоучитель по бухгалтерскому учету. — 7-е изд., перераб. и доп. Москва: Проспект, 2016. — 608 с. ISBN 978-5-392-19662-3